
"Aliment undiruvu dolzarb 10 kunligi" doirasida Farg'ona shahridagi "Mono markaz"da ommaviy sayyor qabul va mehnat yarmarkasi tashkil etildi

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda ayollarning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish maqsadida Majburiy ijro byurosining Farg'ona viloyat boshqarmasi organlari tomonidan tizimli ishlar tashkil qilib kelinmoqda. Byuroning Farg'ona viloyat boshqarmasi tomonidan "Aliment undiruvu dolzarb 10 kunligi" doirasida Byuroning Farg'ona shahar bo'limi tomonidan ommaviy sayyor qabul va mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Tadbir davomida aliment to'lash majburiyatini olgan qarzdorlar bilan suhbatlar o'tkazildi. Natijada ajrim yoqasiga kelib qolgan 17 nafar ajrashgan oilalar yarashtirildi, 23 nafardan ortiq voyaga yetmagan farzandlar o'z ota-onasi bag'riga qaytarildi.

Shuningdek, 137 nafar otalik majburiyatini bajarmay, aliment pullarini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan otalardan ijro hujjatlari bo'yicha 241,9 mln. so'm aliment pullari undirilishiga erishildi hamda kelgusida aliment pullari belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda qonunda belgilangan choralar ko'rilishi xaqida qat'iy ogohlantirishlar berildi.

Sayyor qabul davomida jami 37 nafar fuqarolarning murojaatlari qabul qilindi. 31 ta murojaatning joyida hal etilishi ta'minlandi. Murojaatchilarning 4 nafariga huquqiy tushuntirish berildi. 2 nafar fuqarolarning murojaatlari qo'shimcha o'rganish talab etilganligi uchun ko'rib chiqish uchun muddat berildi.

"Mehnat yarmarkasi"da Farg'ona shahrida faoliyat ko'rsatayotgan 30 yaqin korxonalar va tashkilotlar bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etishdi. 22 nafar qarzdorlar ishga joylashtirildi va aliment undiruvu qarzdorlarning oylik ish haqqilariga qaratildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2022-11-24 09:08:10